



UDK: 81-114.4.

Ra'no ABDUXAMIDOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
E-mail: ranoabduxamidova0215@gmail.com

ToshDO'TAU professori, f.f.d. Z.Xolmanova taqrizi asosida

EXPRESSION OF THE CONCEPT OF "TIME" IN UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY

Annotation

The article analyzes the expression of the concept of "time" through phraseological units in Uzbek and English from a linguocultural perspective. Phraseological units are examined as linguistic elements that reflect national culture and mentality, through which the attitudes of both peoples towards the concept of time are determined. Throughout the study, phraseological units in both languages are analyzed semantically and lexically, with attention given to the similarities and differences between them. The analysis presented in the article contributes to the study of linguistic devices that reflect the views, values, and outlooks of Uzbek and English peoples regarding time.

Keywords: phraseologism, time, mentality, linguoculturology, cultural connotation, concept, outlook, pragmatic analysis, semantic center, figurative thinking.

ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ "ВРЕМЯ" ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В статье с лингвокультурологической точки зрения анализируется выражение понятия "время" посредством фразеологических единиц в узбекском и английском языках. Фразеологизмы рассматриваются как языковые единицы, отражающие национальную культуру и менталитет, через которые определяется отношение двух народов к понятию времени. В ходе исследования фразеологические единицы обоих языков подвергаются семантическому и лексическому анализу, при этом особое внимание уделяется сходствам и различиям между ними. Представленный в статье анализ способствует изучению языковых средств, отражающих взгляды, ценности и мировоззрение узбекского и английского народов в отношении времени.

Ключевые слова: фразеологизм, время, менталитет, лингвокультурология, культурная коннотация, концепт, мировоззрение, прагматический анализ, семантический центр, образное мышление.

U'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARDA "VAQT" TUSHUNCHASINING IFODALANISHI

Аннотация

Maqolada o'zbek va ingliz tillarida "vaqt" tushunchasining frazeologik birliklar orqali ifodalanishi lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Frazеologizmlar milliy madaniyat va mentalitetni aks ettiruvchi til birliklari sifatida o'rganilib, ular orqali ikki xalqning vaqt tushunchasiga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Tadqiqot davomida har ikki tildagi frazeologik birliklar semantik va leksik jihatdan tahlil qilinib, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarga e'tibor qaratiladi. Maqolada keltirilgan tahlillar o'zbek va ingliz xalqlarining vaqtga nisbatan qarashlari, qadriyatlarini hamda dunyoqarashini aks ettiruvchi til vositalarining o'rganilishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, vaqt, mentalitet, lingvokulturologiya, madaniy konnotatsiya, tushuncha, dunyoqarash, pragmatik tahlil, semantik markaz, obrazli tafakkur.

Kirish. Har bir til – o'z xalqining tafakkuri, tarixiy tajribasi va dunyoqarashining noyob aksidir. Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til ijtimoiy faoliyatning barcha sohalariga xizmat qiladi. Xususan, til va madaniyat, o'zaro madaniy aloqa masalarini lingvokulturologiya ilmiy asosda tadqiq etadi.

Adabiyotlar tahlili. Madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning milliy obrazi va xarakteri sifatida keng etnografik mazmunga ega. Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. V.N.Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya inson omilini, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigмага xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir".

Tadqiqot metodologiyasi. Til boyligining muhim qismi bo'lgan frazeologizmlar milliy madaniyatni, xalqning

hayotiy tajribalari va qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Frazеologizmlar struktural, semantik, funksional uslubiy jihatlari bilan murakkab hodisa bo'lganligi uchun u o'ziga xos shakllanish qonuniyatlariga ega. Frazеologizmlarning paydo bo'lishi va shakllanishi muayyan tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, xalq turmushidagi hayotiy voqelik va undan kelib chiquvchi tasavvurlarni obrazli tarzda aks ettirish bilan aloqador bo'ladi.

Ayniqsa, vaqt tushunchasining ifodalanishi frazeologik birliklarda o'ziga xos obrazlar, ramzlar va milliylik orqali namoyon bo'ladi, chunki vaqt – inson hayotining ajralmas qismi, uning har bir qadami, harakati va tafakkuri bilan uzviy bog'liq tushunchadir. Vaqtning ahamiyati, o'tkinchiligi, qadri kabi turli xususiyatlari frazeologizmlarda o'zining yorqin ifodasini topgan. Frazеologizmlar nafaqat tilning leksik tarkibini boyitadi, balki xalqning milliy dunyoqarashini, tarixiy tajribasini, urf-odat va an'analarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois turli tillardagi frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish orqali xalqlar madaniyati, dunyoqarashi o'rtasidagi o'xshash va farqli

jihatlarini, ularning mentalitetidagi o'ziga xosliklarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. O'zbek va ingliz tillaridagi vaqtga oid frazeologik birliklarda ikki xalqning vaqtga bo'lgan munosabati, hayot tarzidagi yondashuvi va ma'naviy olami yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan, "Time is money" ingliz tilidagi juda mashhur va keng tarqalgan fraza hisoblanadi. Unda vaqtning qimmatli resurs ekanligi, vaqtdan samarali foydalanish orqali moliyaviy jihatdan yaxshi natijaga ega bo'lish mumkinligi ta'kidlanadi. O'zbek tilida esa xuddi shunga o'xshash "O'tgan vaqt yo'qolgan oltin qimmat" maqoli mavjud. Bu maqollar o'zaro o'xshash bo'lib, ularda vaqtning qadrlash kerakligi ta'kidlanadi. Maqolning o'zbek tilidagi shaklida vaqt "oltin"ga tenglashtirilib, hatto undan ham qadrlari ekani aytilsa, inglizlar uni "pul" sifatida talqin qiladi. Bu esa madaniy yondashuvlardagi kichik farqni ko'rsatadi: maqolning o'zbekcha shaklida vaqtning bebaholigiga urg'u berilgan, ingliz tilidagi shaklida bo'lsa u amaliyotga doir iqtisodiy qadriyat, moliyaviy resurs sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni mazkur maqolda vaqtning yo'qotish – daromad yo'qotish degan mazmun yetakchilik qiladi. Bu misol AQSh va G'arb jamiyatlaridagi kapitalistik, raqobatga asoslangan hayot tarzi xalq maqollarida ham o'z aksini topganini ko'rsatadi. Shu o'rinda, o'zbek tilida "Vaqtning ketdi – baxting ketdi" hikmati borki, u mazkur xalq dunyoqarashida vaqtning baxt, nasiba, taqdir bilan bog'liqligini aks ettiradi, bu esa maqolga yanada hissiyroq va falsafiyroq mazmun bag'ishlaydi. Bu maqol o'zbek xalqi uchun vaqt tushunchasi nafaqat moddiy, balki baxtga erishuvning ham bir qismi ekanligini ko'rsatib, uni axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham qadrlashga chorlaydi.

"Procrastination is the thief of time" maqolida ishni kechiktirish vaqtning o'g'risi ekanligi e'tirof etiladi va kuchli metafora orqali ifodalaniadi. "Qolgan ishga qor yog'ar" o'zbek maqolida esa kechiktirilgan ishning oxir-oqibat bajarilmay qolib ketishi yoki qiyinlashib ketishi tabiat hodisasi – qor vositasida ko'rsatiladi. G'arb jamiyatida vaqt juda ahamiyatli tushunchalardan biri va bajarilishi zarur ishni biror sabab bilan keyinga surish bu jamiyatda "yashab qolish" imkoniyatini kamaytiradi. Shuning uchun ham maqolda "thief" – o'g'ri degan kuchli ogohlantirish mavjud. "Qolgan ishga qor yog'ar" maqoli esa o'zbek xalqining tabiiy sharoit va atrof-muhit bilan aloqadagi badiiy tafakkurida shakllangan bo'lib, vaqtida qilinmagan ishga hayotning o'zi to'siq bo'ladi, degan falsafiy fikrni o'zida mujassam etadi. Maqoldagi "qor" obrazi ham real va hayotiy. Ayniqsa, dehqonchilik va qurilish bilan bog'liq ishlarda qor yog'ishi ishning murakkablashuviga sabab bo'ladi.

Ingliz tilida "Little drops of water make the mighty ocean" maqoli mavjud. Unda kichik suv tomchilarining qudratli okeanni hosil qilishi orqali muayyan vaqt ichidagi izchil harakat obrazli tarzda ifodalangan. O'zbek tilida ham "Vaqt tog'ni yemirar, suv toshni kemirar" otalar so'zi bor. Har ikkala maqoldagi umumiy g'oyada vaqt o'zgartirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi, vaqtning kichik bo'lsa-da izchil ta'siri orqali katta o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. O'zbek tilidagi maqolda "tog'" va "tosh" – bu hayotdagi muammo va turli qarshiliklar timsoli, "vaqt" va "suv" esa ularni asta-sekin yemiruvchi kuch sifatida berilgan, ya'ni vaqt – bu qudratli o'zgartirish vositasi, u hatto eng mustahkam narsani ham mahv eta oladi. Shuningdek, mazkur maqolda vaqt sabr bilan, davomli harakat bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi, insonni shoshmasdan, lekin uzluksiz harakatga undaydi. Ko'rinadiki, bu hikmatda vaqt nafaqat sarf etiladigan resurs, balki sabr va chidam bilan bog'liq falsafiy hodisa sifatida ham qadrlanadi. Ingliz tilidagi "Little drops of water make the mighty ocean" maqolida "little drops of water" – mayda suv tomchilari – har bir daqiqa, har bir mayda sa'y-harakat ramzi. "Ocean" – okean esa maqsad yoki marradagi

yutuq hisoblanadi. Ingliz tilidagi bu maqol vaqtning amaliy qiymatga ega resurs sifatida talqin qiladi: hayotdagi har bir soniyaning o'z qiymati bor va uni samarali istifoda etish zarur. Mazkur yondashuv g'arb madaniyatidagi individga yo'naltirilgan vaqt tushunchasiga ham mos keladi, ya'ni vaqtning qadri harakat, natija va yutuq uchligi orqali o'chanadi.

"The early bird catches the worm" ingliz tilida keng tarqalgan maqollardan biri bo'lib, so'zma-so'z tarjimasi "Erta turgan qush chuvalchang tutadi" degan ma'noni anglatadi. Ushbu hikmat zamirida erda harakat qilgan shaxsning imkoniyatlardan birinchi bo'lib foydalanishi haqidagi g'oya yotadi. Maqolda "chuvalchang" obrazli tarzda imkoniyat, yutuq yoki noyob fursatni anglatadi. U raqobat kuchli bo'lgan ingliz madaniyatida tashabbuskorlik va faollikni targ'ib qiladi. Bunga qarama-qarshi emas, balki mazmunan yaqin bo'lgan o'zbek tilidagi "Barvaqt qilingan harakat hosilga berar barakat" maqoli esa harakatning muvaffaqiyatli natijasi va barakasi – uni o'z vaqtida boshlash bilan chambarchas bog'liq degan fikrni ilgari suradi. Mazkur maqol o'zbek xalqning dehqonchilik va mehnatsevarlik an'analarga tayangan holda olingan hayotiy xulosalarini ifodalaydi. "Barvaqt", "harakat", "hosil", "barakat" kabi so'zlar sharqona tafakkurga xos bo'lgan sabr-toqat, mehnatning meva berishiga ishonch va oqibatga bog'liq natijalarni aks ettiradi. Demak, maqolning ingliz tilidagi shaklida erda harakat imkoniyatni qo'lga kiritish uchun vosita bo'lsa, o'zbek maqolida barakali va samarali natijaning kaliti hisoblanadi. Shunga qaramay, ikkala maqol ham biror ishni kechiktirmaslikka, vaqtning qadrlashga va imkoniyatdan oqilona foydalanishga chorlaydi.

Ingliz tilidagi "Time and tide wait for no men" maqoli "Vaqt va to'lqin hech kimni kutmaydi" degan ma'noni bildiradi. Unda ingliz xalqi uchun xos bo'lgan intizom, rejaliq qadriyatlar aks etadi. O'zbek tilida esa "Osh kutsa ham ish kutmas" naqli mavjud. Bu misollar orqali har ikkala maqolning o'ziga xos madaniy muhitda shakllanganligi ko'zga tashlanadi. Ingliz maqolida "time" – vaqt va "tide" – suv to'lqini tushunchalari inson tomonidan nazoratga olinmaydigan kuch sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni ularning harakatdagi, o'zgaruvchan hodisalar ekanligiga urg'u berilgan. Bu, o'z navbatida, G'arb jamiyatidagi vaqtning qadrlash va undan unumli foydalanish zarurati bilan bog'liq. "Osh kutsa ham ish kutmas" maqoli ham vaqt bilan bog'liq faoliyatni ortga surmaslik g'oyasini beradi. Ularning ikkalasidagi pragmatik maqsad bitta – odamni tezkor harakatga chorlash. O'zbek maqolida "vaqt" tushunchasi to'g'ridan to'g'ri aytilmagan bo'lsa-da, ishga zudlik bilan kirishish zarurati orqali vaqtga bo'lgan yondashuv anglashiladi. O'zbek madaniyatida vaqt – bu vazifa bilan bog'liq, mehnat jarayonining ajralmas qismi sifatida aks etadi. Mazkur maqolda ham "vaqt" ko'proq ijtimoiy va axloqiy kontekstda talqin qilinib, undan samarali foydalanish kerakligi mas'uliyatli bo'lish, harakatdan to'xtamaslik, burchni vaqtida ado etish orqali ifodalangan. Shu bois "Time and tide wait for no men" maqolida vaqt asosiy semantik markazda, "Osh kutsa ham ish kutmas" maqolida esa bilvosita kontekstda namoyon bo'ladi. Biroq har ikki xalq maqoli ham insonni faollikka chaqiradi. N.S.Trubetskiy yozganidek: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart". Faqat har bir xalq muayyan bir masalaga o'z madaniyatining qadriyatlar sistemasi bilan kelib chiqqan holda yondashgani uchun qiyosda umumiy qismlar bilan birga farqli jihatlar ham ko'zga tashlanadi.

Ingliz tilida "Make hay while the sun shines" maqoli mavjud. Uning so'zma-so'z tarjimasi "Quyosh chiqqan paytda pichanni o'r" degan mazmunni ifodalaydi. O'zbek tilida "Temirni qizig'ida bos", "Nonni tandirning qizig'ida yop" kabi maqollar ham borki, mazkur otalar so'zi va "Make hay

while the sun shines” maqoli o’rtasida umumiy mazmuniy yaqinlik ko’zga tashlanadi, chunki uchala fraza ham foydali ishni aynan qulay paytda bajarish kerakligiga urg’u qaratadi, bir mazmun farqli kontekstlarda aks etadi. Ingliz maqolida “hay” – pichan va “sun shines” – quyosh charaqlashi obrazlari mavjud bo’lib, ular dehqonchilikka oid bo’lishiga qaramay, unda qulay imkoniyatni qo’ldan boy bermaslik, fursatdan oqilona foydalanish g’oyasi ilgari surilgan. “Temirni qizig’ida bos”, “Nonni tandirning qizig’ida yop” maqollari ham ishda eng qulay pallani boy bermaslik, holat va vaqt uyg’unligining zarurligi haqidagi mazmuni aks ettiradi. Bu maqollardagi “temir”, “tandir”, “non” obrazlari o’zbek xalqining maishiy-madaniy turmush-tarzi bilan bog’liq tushunchalar hisoblanadi. Ingliz maqolida ob-havo sharoiti (“sun shines”) imkoniyat belgisi sifatida talqin qilinadi. O’zbek maqollarida esa vaqt jarayon bilan uyg’un holatda (“temirning qizig’i”, “tandirning qizig’i”) aks etadi. Bu, o’z navbatida, sharqona tafakkurda holatni ko’rib, shunga qarab ish qilish tamoyilining ustuvorligini ko’rsatadi. Demak, bu maqollar semantik va pragmatik jihatdan bir-biriga juda yaqin bo’lsa-da,

lingvokulturologik jihatdan ular orasida muayyan tafovutlar mavjud.

Xulosa. Yuqoridagi misollardan ko’rinadiki, vaqt – o’zbek va ingliz xalqlari madaniyati uchun universal, ammo har doim ham bir xil talqin etilmaydigan tushuncha hisoblanadi. “Vaqt” tushunchasi ifoda etilgan frazeologizmlar har ikki xalq uchun alohida mazmun kasb etib, ularning g’oyasi xalq dunyoqarashi va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan aloqador bo’ladi. Ingliz tilidan keltirilgan maqollar o’zida industrial jamiyat tafakkuriga xos yondashuvni aks ettirsa, o’zbek xalq maqollari mazkur xalqning agrar jamiyatga xos, tabiat bilan uyg’un hayot tarzidan dalolat beradi. Semantik jihatdan har ikki til maqollarida vaqtning qadri, uni boy bermaslik zarurati, fursatdan foydalanib qolish kabi umumiy jihatlar mavjud. Ammo pragmatik jihatdan frazalarning vazifasi farqlanadi: ingliz maqollari ko’proq ogohlantiruvchi, maslahat beruvchi xususiyatga ega bo’lsa, o’zbek maqollari undovchi, faoliyatga da’vat etuvchi ohangda bo’ladi. Natijada esa, o’zbek va ingliz tillarida vaqtga oid frazeologizmlar xalq mentaliteti, madaniy qadriyatlar va hayot tarzi bilan uzviy bog’liqligini ko’rish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. www.academia.edu
2. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2020.
3. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1999.
4. Телия В. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа Языки русской культуры, 1996.
5. Трубецкий Н. Поведения и мышления к языку. – М., 1960.